



GENDER DISKRIMINATSIYAGA QARSHI KURASHISHDA MA'NAVIYATNING AHAMIYATI

Hamrayeva Dilnavoz Akbarali qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Ma'naviyat asoslari yo'nalishi

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629075>

Annotatsiya: Ushbu maqola gender diskriminatsiyasi nima ekanligi, uning jamiyatdagi salbiy ta'sirlari, unga qarshi qanday choralar ko'rish kerakligi va bu yo'lda ma'naviyatning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy jamiyatda gender diskriminatsiyasining ko'rinishlari, uning ijtimoiy va shaxsiy salbiy oqibatlari, shuningdek, ma'naviyatning bu jarayonga qarshi kurashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ma'naviyatni inson qadriyatlarini rivojlantirish, teng imkoniyatlar asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rsatuvchi ushbu maqolada aynan ma'naviyat gender tengligi sari olib boruvchi transformatsion strategiya sifatida tahlil qilingan.. Adabiyotlar tahlili, kontent-tahlil, falsafiy-tarixiy tahlillardan foydalanilgan holda xulosa qismida ma'naviyatning gender rollaridagi ahamiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: gender, gender tengligi, diskriminatsiya, gender diskriminatsiyasi, ijtimoiy adolat, ma'naviyat, qadriyatlar, axloq, jamiyat.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется, что такое гендерная дискриминация, её негативные последствия для общества, какие меры необходимо предпринимать против неё, а также значимость духовности в этом процессе. В статье рассматриваются проявления гендерной дискриминации в современном обществе, её социальные и личностные негативные последствия, а также роль духовности в борьбе с данным явлением. Кроме того, в статье духовность рассматривается как инструмент развития человеческих ценностей и обеспечения социальной стабильности на основе равных возможностей, а также как трансформационная стратегия на пути к гендерному равенству. С использованием анализа литературы, контент-анализа и философско-исторического анализа в заключительной части представлены рекомендации по повышению значимости духовности в гендерных ролях.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, дискриминация, гендерная дискриминация, социальная справедливость, духовность, ценности, нравственность, общество.



Abstract: This article provides a scientific-theoretical analysis of what gender discrimination is, its negative impact on society, the necessary measures to combat it, and the significant role of spirituality in this process. The article explores the manifestations of gender discrimination in modern society, its social and personal negative consequences, as well as the role of spirituality in countering this issue. Furthermore, spirituality is examined as a means of developing human values and ensuring social stability based on equal opportunities, and as a transformational strategy leading towards gender equality. Using literature analysis, content analysis, and philosophical-historical methods, the conclusion presents recommendations on enhancing the importance of spirituality in shaping gender roles.

Keywords: gender, gender equality, discrimination, gender discrimination, social justice, spirituality, values, ethics, society.

Jahon miqyosida insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilar ekan, jamiyat hayotining turli jabhalarida gender masalalari tobora dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, gender diskriminatsiyasiga oid holatlar ko'pgina jarayonlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bugungi globallashuv davrida erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy rollarning yangicha mazmun kasb etayotgani, ularning oiladagi, jamiyatdagi va mehnat bozoridagi o'rni borasidagi qarashlarning o'zgarishi ushbu muammoni chuqur falsafiy va ma'naviy nuqtayi nazardan tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Inson tafakkuri, xulq-atvori, ijtimoiy faolligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lgan ma'naviyat jamiyatdagi gender rollarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Gender tenglikka erishish bo'yicha chora tadbirlar masalasi 2019-yil 2-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Ayollarni qo'llab-quvvatlash va gender tengligini ta'minlashga doir davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] PF-87-son Farmonida ham alohida qayd etilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi gender rollari va diskriminatsiyasining shakllanishi, o'zgarishi va ularning ma'naviyat bilan aloqadorligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, genderga oid stereotiplar va ularni yengishda milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning rolini ilmiy asoslashdan iboratdir.



Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, mavzu bo'yicha milliy va xalqaro manbalarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Xorij olimlari adabiyotlari va qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, fransuz faylasufi va feministik nazariyotchi Simone de Beauvoir o'zining mashhur asari "The Second Sex"[2] da ayollar jamiyatda "ikkinchi jins" sifatida tasvirlanishini tanqid qilgan hamda u gender rollari biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya ekanligini ta'kidlaydi. Nancy Fraser esa iqtisodiy va madaniy tengsizlikni tahlil qiladi. U gender adolatsizlikni tan olish va resurslarni qayta taqsimlash bilan bartaraf etish zaruratini ilgari suradi: "Adolat – bu tan olish va qayta taqsimlashni birlashtirgan siyosiy strategiyadir" [3].

O'zbek olimlari tahliliga keladigan bo'lsak, Sh.Abdullayeva gender tenglikni ijtimoiy adolatning muhim ko'rinishi sifatida ko'radi va diskriminatsiya holatlarini ijtimoiy ongdagi tarixiy stereotiplar bilan bog'laydi: " Gender tengsizligining ildizi – ayollarga nisbatan tarixan shakllangan stereotiplar va ularni jamiyatda faol ishtirok etishdan to'suvchi omillardir"[4]. T.Jo'rayev o'z tadqiqotlarida gender munosabatlarining ma'naviy-tarbiyaviy asoslarini ochib bergan. Uning fikricha, gender tenglik ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi kerak[5].

Natijalar va muhokama

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, diskriminatsiya – jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, dini, nogironligi, jinsiy orientatsiyasi yoki boshqa ijtimoiy qurilgan toifalar kabi xususiyatlar asosida shaxslar yoki guruhlariga nisbatan differentsial va adolatsiz munosabatni bildiradi. Ilmiy nuqtayi nazardan, diskriminatsiya noto'g'ri qarashlar, stereotiplar va institutsional kuch dinamikasiga asoslangan ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida tushuniladi.

Shu nuqtayi nazardan, diskriminatsiya tushunchasi odamlar orasida teng muomala qilmaslik yoki farqli munosabatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi[6]. Masalan, 1979-yilda qabul qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'grisida"gi Konvensiya (CEDAW) da "ayollarga nisbatan kamsitish" deganda, "har qanday farq, istisno yoki cheklov, u ayollarni o'z huquqlaridan, inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'laonli foydalanish, amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qilsa" deb ta'riflanadi[7].

Demokratik davlatlarning qonunchiligida va xalqaro huquq normalarida diskriminatsiyaning barcha shakllari ta'qiqlangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro



pakt kabi hujjatlar diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Global miqyosda ayollarning zaifligi – bu inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat, garchi ularni himoya qilishga qaratilgan huquqiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lsa ham. Jinsga asoslangan kamsitish, avvalo, inson huquqlari buzilishiga olib keladi. Garchi ayollarga nisbatan kamsitish, diniy va madaniy normalar aniq ko'rinishga ega bo'lsa-da, ko'pincha bu qadriyatlar gender tengligiga qarshi vosita sifatida ishlatiladi[8].

Gender diskriminatsiyasi ayollar yoki, ba'zida erkaklar uchun ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash va siyosiy ishtirokda cheklovlar keltirib chiqaradi. Masalan, mehnat bozorida diskriminatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

U quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Ishga qabul qilishda gender asosidagi ustuvorlik;

Ayollarga nisbatan kamroq maosh to'lash;

Lavozimga ko'tarilishda to'siqlar;

Homiladorlik yoki onalik tufayli ishdan bo'shatish;

Jinsiy zo'ravonlik yoki noqulay muhit;

Stereotiplarga asoslangan kiyinish qoidalari.

Gender tengsizligi ta'lim tizimida tarixiy, madaniy va iqtisodiy sabablarga ko'ra yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, qiz bolalar, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy to'siqlar tufayli erkak tengdoshlariga nisbatan ko'proq kamsitilishadi. Bu holat ularning ta'limga kirish imkoniyatlarini, ishtirokini va natijalarini cheklaydi.

Siyosiy ishtirokda gender asosida kamsitish – ayollar va erkaklarning siyosiy hayotdagi teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi tizimlar, harakatlar hamda madaniy to'siqlarni anglatadi. Gender tengsizligi va diskriminatsiyasi jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida huquq, imoniyat va resurslarga teng kirish imkoniyatning yo'qligi nafaqat inson huquqlarining buzilishi, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi va natijada jamiyatning umumiy farovonlik darajasi zarar ko'radi.

Ma'naviyat – bu insonning axloqiy, ruhiy, estetik va intellektual qadriyatlar qadriyatlar tizimidir. U jamiyatdagi muammolarga shaxsiy va ijtimoiy ong orqali yechim topish imkonini beradi. Zero, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'rifi bilan aytganda: “ ..insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini



yotiradi, qalbi, vijdonini uygʻotadi, odamiylik hissini kuchaytiradi”[4]. Gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashishda maʼnaviyat quyidagi jihatlar orqali muhim ahamiyat kasb etishini quyidagilar isbotlaydi:

Tenglik gʻoyasini targʻib qiladi: maʼnaviy tarbiya orqali jamiyatda har bir insonning qadr-qimmatini, jinsidan qatʼiy nazar, teng ekanligi haqidagi tushuncha shakllanishiga taʼsir qiladi. Bu esa, oʻz navbatida, adolatli ijtimoiy munosabatlar asosini yaratadi.

Oʻziga ishonch va mustaqillikni rivojlantiradi: gender stereotiplari bilan kurashishda, ayniqsa ayollar uchun, oʻz qobiliyatiga ishonch juda muhim hamda maʼnaviyat bu ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi, ijtimoiy bosimlarga bardosh berishga yordam beradi.

Gender stressni kamaytiradi: anʼanaviy gender rollariga mos kelmaslikdan kelib chiqadigan ruhiy zoʻriqish maʼnaviy qadriyatlar orqali kamaytiriladi, bu esa psixologik barqarorlikni taʼminlaydi.

Adolat va ijtimoiy oʻzgarishlarga turtki beradi: maʼnaviy qadriyatlar – adolat, tenglik, haqiqat, hurmat va bagʻrikenglik – ijtimoiy tizimdagi nohaqliklarni tanqidiy tahlil qilish va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Oilada sogʻlom gender munosabatlarini shakllantiradi: oila gender stereotiplarining birlamchi shakllanish joyi hamda maʼnaviyat orqali hurmat, sabr-toqat, teng masʼuliyat kabi qadriyatlar oilaviy hayotda mustahkamlanadi.

Xulosa

Metodologik yondashuvlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, maʼnaviyat shaxsning ichki dunyosini boyitadi, tenglikni qadrlashni oʻrgatadi, oʻziga boʻlgan ishonchni oshiradi, stress darajasini kamaytiradi, adolat uchun kurashishga undaydi va oilaviy hayotda sogʻlom gender munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Gender tengligini maʼnaviyat asosida mustahkamlashga qaratilgan, davlat, jamoatchilik va taʼlim muassasalari darajasida amalga oshirilishi mumkin boʻlgan quyidagicha taklif va chora-tadbirlar maqsadga muvofiqdir:

1. Diniy va milliy qadriyatlarni gender tengligini targʻib etishda toʻgʻri talqin qilish;
2. Oʻzbek xalq madaniyatidagi ijobiy ayol obrazlarini ommalashtirish;
3. Gender tengligi masalasi yuzasidan taʼlim tizimini isloh qilish;
4. Gender stereotiplari va diskriminatsiyasini yengishda OAV larning rolini yanada oshirish;
5. Mahalla tizimi orqali maʼnaviy-gender targʻibotini kuchaytirish





Shunday qilib, gender tengligiga to'sqinlik qilayotgan stereotiplar va kamsitish holatlarini yengishda insonparvarlik, tenglik, adolat va bag'rikenglik kabi ma'naviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Gender muammolarini hal etishda faqatgina huquqiy choralar yoki ularning amaldagi holatlari bilan cheklanmasdan, balki ma'naviy-ma'rifiy tomonlama ham yondashish barqaror natijalarni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5899498?ONDATE=07.03>.
2. Beauvoir S.de. The Second Sex. – Vintage books, 1949.
3. Fraser, N. (2003). Social Justice in the Age of Identity Politics: Redistribution, Recognition, and Participation. In Fraser, N., Redistribution or Recognition?. Verso.
4. Abdullayeva Sh.(2020). Gender tenglik va jamiyat taraqqiyoti. T.:O'zR FA Falsafa instituti nashriyoti.
5. Jo'rayev T. (2018). Oila va gender munosabatlari: ma'naviy-tarbiyaviy yondashuvlar. T.: Ma'naviyat.
6. Fombad C.M. The constitutional protection against discrimination in Botswana //International Comparative Law Quarterly. – 2004.
7. Article1,CEDAW.1979.//
http://archive.ipu.org/pdf/publications/cedaw_en.pdf
8. Farrior S. Human rights advocacy on gender issues: challenges ang opportunities//Journal of Human Rights Practice. – Volume 1. – Issue 1. – March 2009.

